

O'QUVCHILARNING LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOG VA O'QITUVCHILARNING O'RNI

*Rasulova Zuxroxon Adxamovna
Namangan viloyati Namangan shahar
MMTB ga qarashli 66-umumiy o'rta
ta'lim maktabi psixologi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiyl o'rta ta'lim muassasasidagi o'quvchilarning liderlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlanirishning psixologik usullari va metodlari haqida fikr mulohazalar keltirib o'tilgan. Bolalarda qobiliyatning shakllanishida ota-onalarning aralashuvi hamda ularning farzand tarbiyasida e'tibor berishi kerak bo'lган xususiyatlar haqida ham fikr mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: layoqat, iqtidor, qobiliyat, tashkilotchilik. liderlik, o'z-o'zini rivojlanirish, malaka, shaxsiy qaror, ko'nikmalar, ilmiy tadqiqotlar.

Kirish O'sib kelayotgan yosh avlodni ruhan barkamol va ma'nani yetuk qilib tarbiyalash ulardagi iqtidor ko'nikmalarini erta aniqlash va o'zlarining layoqatlaridan kelib chiqib kasb-hunarga yo'naltish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahoratlari o'qituvchi har bir o'quvchining fan yuzasidagi bilimlaridan tashqari uning psixologik hususiyatlarini ham aniq tasavvur eta olishi lozim. Sinfda o'quvchilarining o'zaro raqobati guruh ichidagi turli nizolarni vujudga keltirishi mumkin. Nizolar vujudga kelmasligi uchun raqobat sog'lom bo'lishi, sog'lom raqobatni vujudga keltirish uchun har bir o'quvchining individualligini hisobga olgan holda ijobjiy psixologik ta'sir o'tkazish yo'llarini bilishi lozim. Chunki ba'zi bir o'quvchilarni jazo orqali to'g'ri yo'lga sola olsak, ba'zi birlariga rag'bat orqali ta'sir o'tkaza olamiz. Bu haqda shu kunga qadar ko'plab izlanishlar olib borilgan, maqolalar yozilgan, o'qituvchiga qo'yilgan talablar haqida ko'p gapirilgan bo'lishiga qaramay har bir ta'lim muassasasidagi pedagoglarni bir xildagi anaanaviy usullarni qo'llashi natijasida o'quvchilarda kreativ fikrlash va liderlik qobiliyatları nisbatan rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Yetakchilik – liderlik – rahbarlik, bu tushunchalar go'yoki bir xil ma'noni anglatadigandek, lekin ular bir-birlaridan faoliyatiga ko'ra farq qiladi. Bu tushunchalar orqali deyarli hamma o'z hayoti davomida yuqori pog'onaga, ya'ni rahbarlikka intilishadi. Kimlardir firmalar, korxonalar ustidan rahbarlik qilishga intilishsa, boshqalar insonlar ustidan rahbarlikni qo'lga kiritishga harakat qiladi. Bu qobiliyatga bog'liq bo'lsada, rahbar bo'lish uchun insonda liderlik qobiliyatı bo'lishi shart emas. Liderlik qilish va rahbar o'rtasidagi farq ham ana shundan kelib chiqadi. Bu borada

B.D.Parigin ham “lider” va “boshliq” tushunchalarini farqlab shunday deydi: “lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi”. Sinfda ham o’quvchilarning aksariyati rahbarlikka, ya’ni sardorlikka intilishadi, ammo ularning hammalarida ham rahbarlik qilish qobiliyatini mavjud emas. Inson psixologiyasida boshqalar ustidan hukmronlik qilish, ulardan ajralib turish, har doim eng avval o‘z “men”ini olg‘a surish hislatlari mavjudligi hozirgi kunga qadar buyuk sarkardalar, yo‘lboshchilar, zolim qirollar-u, adolatparvar hukmdorlarni vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Bunday hislat har bir insonda bo‘lgani singari bog‘cha bolasidan tortib, oliy o‘quv yurti talabalarida ham mavjud. Bu hislatlarning kimdadir egoistik xarakterga, kimdadir liderlik qobiliyatiga aylanishida bevosita ta’lim va tarbiya beruvchi o‘qituvchining roli beqiyosdir. Mahoratli o‘qituvchi qanday bo‘ladi? Guruhda liderlarni aniqlab, ularni tarbiyalash shartmi degan savollarga javob berish uchun avval shuni ta’kidlash joizki, o‘qituvchi tomonidan bir o‘quvchining boshqa o‘quvchilar oldidagi statusi, unga yuklagan vazifasi, unga bo‘lgan ishonchi qanchalar yuqori bo‘lsa, uning o‘qituvchiga nisbatan hurmati, o‘sha fanga bo‘lgan qiziqishi, tengdoshlari oldidagi hurmati, kelajakka bo‘lgan intilishi, jamiyatning rivoji uchun qo‘sadigan hissasi shuncha yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, agar ta’lim oluvchi maktab o‘quvchisi bo‘lsa, undagi psixologik va fiziologik o‘zgarishlar natijasida kechadigan o‘tish davrida o‘qituvchining har bir hatti-xarakati, har bir so‘zi bevosita unga ta’sir qiladi. Maktab psixologini sinflardagi liderlik qibiliyatiga ega o‘quvchilarni aniqlashda turli pedagogik texnologiyalar asosida psixologik testlarni o‘tkazishi bilan bir qatorda har bir o‘quvchiga mas’uliyatli vazifalarni yuklashi, guruh ichida turli lavozimlarni (guruh sardori, tozalik komissiyasi raisi, qator boshi, guruh jihozlarini asrash bo‘yicha nazoratchi va hokazo) berib ham aniqlash mumkin. Bu usul o‘quvchilarning amaliyotda o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatini beradi. Albatta, bu holatda barcha o‘quvchilar bir xilda yaxshi natijalarni ko‘rsatmasliklari mumkin. Bu holda o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, tarbiyalashdir. Har bir o‘quvchida yashirin bo‘lgan individual hislatlarni ko‘ra olish, ulardagi turli qobiliyatlarni, shu jumladan liderlik qobiliyatini aniqlash va uni to‘g‘ri tarbiyalash orqali mahoratli pedagog o‘z o‘quvchilarini kelajakda ularni kutayotgan turli to‘siqlarni osongina yengib o‘tishiga zamin yaratish bilan bir qatorda o‘z ishining ustalarini, adolatli rahbarlarni, yaxshi boshqaruvchilarni, mohir tashkilotchilarni tarbiyalab jamiyatimizga komil insonlarni yetkazib beradi. O‘quvchini yaxshi boshqaruvchi, chinakam lider – yetakchi qilib tarbiyalash uchun eng avvalo, ota-onasi va o‘qituvchi hamkorlikda bolalardagi tashkilotchilik, keng dunyoqarash, o‘z fikrini boshqalarga aniq, tez va mukammal yetakazish, kreativlikni, o‘z ortidan ergashtirish qobiliyatlarini shakllantirishlari lozim. Odatda guruh yoki sinf sardorligiga namunali xulqli, a’lochi o‘quvchi tayinlanadi yoki saylanadi. Bunday o‘quvchi sardor bo‘lgan sinfda boshqa

norasmiy guruhchalar o‘z norasmiy liderlariga ega bo‘ladi. Bu esa guruhnini ortga tortib, ahillikni yo‘qotib, tarqoqlik, yakkalanishni vujudga keltirishi mumkin. Bu kabi holatlarda o‘qituvchi guruh talabalarini yaxshi o‘rgangan holda shunday bir sardor tanlashi lozimki, u yaxshi o‘qimasligi va hattoki guruhdagi eng to‘polonchi bola bo‘lishi mumkin. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, unga bu vazifa yuklanganda talaba sardor mas’uliyatni to‘laqonli his qilishi lozim. Sardor mas’uliyati orqali ham guruh jipslashadi, ham jamoa shakllanadi, shu bilan birga sardorning ham fanlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga intilishi ortadi, xulqini to‘g‘rilaydi, unga bo‘lgan ishonchni oqlashga harakat qiladi. Bu esa har tomonlama samarali natijani beradi. Albatta, buning uchun o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari oldida obro‘sni mustahkam, hurmatga ega, adolatli, o‘z faniga qiziqtira olgan, yaxshi taassurot qoldirgan bo‘lishi lozim.

Ba‘zi hollarda norasmiy liderlar soni ko‘p yoki bo‘lmasa vaziyat taqazosiga ko‘ra sardor, ya’ni – rasmiy lider sifatida boshqa bir talaba tayinlangan hollarda guruh rahbari har bir norasmiy lider bilan ham o‘z mahorati va san’ati orqali ikki tomonlama yaxshi munosabatni saqlab turishi lozim. Hozirgi kunda globallashuv jarayoni natijasida yoshlarni ular uchun kitobiy, baland parvoz tuyuladigan hayotiy va muhim g‘oyalarga yetaklash bir muncha qiyinlik tug‘diradi. Ular liderlikni “hokimiyatni egallash maqsadida foydalanish” deb tushinishlari mumkin. Bu tushunchalar orqali ko‘plab norasmiy liderlar tomonidan “qo‘zg‘olonlar” uyushtirilishi, bo‘ysunmaslik holatlari kuzatiladi. O‘quvchilarning liderlikga bo‘lgan ehtiyoj qanchalik muhim bo‘lsa, uni inkor qilish shunchalik mustahkam bo‘lishi va aksincha, o‘zi mustaqil va to‘g‘ri fikrlash hamda g‘oyalalarini amalga oshirishining imkoniyati bo‘la turib uning uchun zarur bo‘lmagan “lider”ning ortidan borishi kuzatilishi mumkin. Bu kabi holatlarda ikki xil vaziyatlar kelib chiqishi mumkin. Ulardan biri lider jamiyat ehtiyojini qondirgan holda o‘z vakolatlaridan foydalanib ijobiy natijaga erishish bo‘lsa, ikkinchisi lider eng avvalo, o‘z manfaatini o‘ylagan holda jamiyatning kichin bir a’zosi – shaxsga yoki u orqali butun bir jamiyatga ayanchli oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Balki shuning uchun ham o‘qituvchilik kasbini ham mas’uliyatli, ham sharaflı kasb deyishadi. Yuzaga kelayotgan har bir holatdan ma’lum darajada o‘qituvchi ham o‘zining kelajakni ko‘ra olish qobiliyati orqali xabardor bo‘lishi lozim. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki biz ta’lim-tarbiya berayotgan yosh avlod nafaqat o‘zining bilim va salohiyatini, balki, vatanparvarlik, axloqiylik, insonparvarlik, madaniyatlilik, ma’naviyatlilik kabi oliy xislatlarini ham namoyon qilishlari joizdir. Buning barchasi ta’lim muassasai zimmasidagi mas’uliyatning yanada ortib borishini ta’minlaydi. Har bir o‘quvchining o‘z dunyosi, o‘z qarashlari mavjuddir. Bu qarashlar uning uchun referent bo‘lgan shaxslar tomonidan sayqallantirilib, albatta, ijobiy tomonga yo‘naltirilishi lozim. Har bir o‘qituvchi ungan qo‘yilgan talab va o‘zining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilari uchun qadrdon, sirdosh, ishonchli, sevimli, kuchli bilim sohibiga aylanishi lozim. Mana shu kabi hislatlar o‘quvchilarda

o‘qituvchiga bo‘lgan hurmat va ehtiromni yuzaga keltirish orqali unga ergashish, maslahatlariga amal qilish, to‘g‘ri fikrlash, hayotiy yo‘lini adashmay tanlay olish imkonini beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Umarov B.M.. Psixologiya. T., “Voris-nashriyot”, 2012.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994.
3. Кудрявцев Т. В. Психология профессионального обучения и воспитания. — М.: МЭИ, 1987. — 143 с.
4. Ратанова Т. А., Шляхта И. Ф. Психодиагностические методы изучения личности. — М.: Педагогика, 1998. — 267 с.Nabijonova D. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. -38 b
5. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. - 97 b